

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSc.07/30.12.2019.Yu.22.01 RAQAMLI ILMIY
KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

SAIDOV MAQSUDBEK NORBOYEVICH

**MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT ISHTIROKCHILARI
HUQUQLARINI AMALGA OSHIRISH VA HIMOYA QILISH
MASALALARI**

12.00.03 – Fuqarolik huquqi. Tadbirkorlik huquqi.
Oila huquqi. Xalqaro xususiy huquq

**Yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Content of the abstract of the dissertation of the Doctor of Philosophy (PhD)

Saidov Maqsudbek Norboyevich

Mas'uliyati cheklangan jamiyat ishtirokchilari huquqlarini amalga oshirish va himoya qilish masalalari..... 5

Саидов Максудбек Норбоевич

Вопросы осуществления и защиты прав участников общества с ограниченной ответственностью 25

Saidov Maksudbek Norboyevich

Issues of exercising and protecting the rights of shareholders in a limited liability company 47

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ

List of published works 52

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSc.07/30.12.2019.Yu.22.01 RAQAMLI ILMIY
KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

SAIDOV MAQSUDBEK NORBOYEVICH

**MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT ISHTIROKCHILARI
HUQUQLARINI AMALGA OSHIRISH VA HIMOYA QILISH
MASALALARI**

12.00.03 – Fuqarolik huquqi. Tadbirkorlik huquqi.
Oila huquqi. Xalqaro xususiy huquq

**Yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.4Phd/Yu870 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat yuridik universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (<https://tsul.uz/uz/fan/avtoreferatlar>) va «ZiyoNET» Axborot ta’lim portalida (www.ziyounet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Xodjayev Baxshillo Kamolovich,
yuridik fanlar doktori, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Imomov Nurillo Fayzullayevich,
yuridik fanlar doktori, professor

Sindarov Komil Oydinovich,
yuridik fanlar doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat yuridik universiteti huzuridagi Ilmiy darajalar beruvchi DSc.07/30.12.2019.Yu.22.01 raqamli ilmiy kengashning 2023-yil 27-may soat 14:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100047, Toshkent shahar, Sayilgoh ko‘chasi, 35-uy. Tel.: (99871) 233-66-36; faks: (99871) 233-37-48, e-mail: info@tsul.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat yuridik universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1146-raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100047, Toshkent shahar, Sayilgoh ko‘chasi, 35-uy. Tel.: (99871) 233-66-36).

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil «11» mayda tarqatildi.

(2023-yil «11» maydagi 28-raqamli reyestr bayonnomasi).

I.R.Rustambekov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, yuridik fanlar doktori, professor

D.Yu.Xabibullayev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi, yuridik fanlar nomzodi, professor

S.S.Gulyamov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash huzuridagi Ilmiy seminar raisi, yuridik fanlar doktori, professor

Kirish (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda keng tarqalgan, xo‘jalik yurituvchi subyektlarning o‘z biznesini boshlash va rivojlantirish uchun qulay tashkiliy-huquqiy shakllaridan biri hisoblangan mas’uliyati cheklangan jamiyat (keyinchalik matnda – MChJ deb yuritiladi) rivojlangan davlatlarning huquq tizimlarida (Germaniyada *Gesellschaft mit beschränkter Haftung – GmbH*, ingliz huquqida *Limited Liability Company – LLC*, Fransiyada – *Societe a Responsabilite Limitee – SARL*) har qanday tadbirkorlik faoliyati uchun jozibador va optimal standartga aylanib ulgurgan. Jahon banking dunyodagi 190 ta davlatlar iqtisodiyotining qiyosiy tahliliga asoslangan Biznesni tartibga solish bo‘yicha hisobotiga ko‘ra rivojlangan davlatlar iqtisodiyotlarining o‘rta va yirik bizneslari asosan (60-70%) MChJ tashkiliy-huquqiy shaklidan foydalanishadi.¹ Axborot texnologiyalari hamda sun‘iy intellektning hayotimizga kirib kelishi korporatsiyalarda qarorlar qabul qilish tabiatini butunlay o‘zgartirib yubordi, hatto ayrim korporatsiyalarda ijro organi (direktor) o‘rni sun‘iy intellekt egallamoqda.² Bu esa ishtirokchilarining o‘z huquqlaridan, ayniqsa axborotga bo‘lgan huquqlaridan foydalanish, MChJ ustav kapitalidagi ulushlarning boshqa shaxsga o‘tishi, jamiyatni boshqarishga oid huquqlarini amalga oshirish va himoya qilishda bir qator nazariy va amaliy muammolarni keltirib chiqarmoqda.

Jahonda barcha huquq tizimlarida tadbirkorlik faoliyatining asosiy tashkiliy-huquqiy shakli bo‘lgan MChJ ishtirokchilari huquqlarini amalga oshirish va himoya qilish bilan bog‘liq ushbu muammolarga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Zamonaviy korporativ huquqqa oid nazariya va amaliyotda MChJ ishtirokchilari huquqlarini amalga oshirish va himoya qilishga oid turli tendensiyalar kuzatilmoqda. Jumladan, korporativ huquqning zamonaviy muammolariga yechim izlanarkan, ishtirokchiga yo‘naltirilgan (*shareholder oriented*), ishchi kuchiga yo‘naltirilgan (*labour oriented*) va davlat ishtirokiga yo‘naltirilgan (*state oriented*)³ modellar shakllangan bo‘lib, ularda MChJning maqsadlari, konstruksiyasi, boshqaruvi hamda butun faoliyati MChJ ishtirokchisi huquqlarining amalga oshirilishini ta‘minlashga, himoya qilishga, uning qonuniy manfaatlariga xizmat qilishi lozimligiga ustuvor yo‘nalish sifatida belgilanmoqda.⁴

Mamlakatimizda eng ommalashgan tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli hisoblanadigan MChJ (MChJlar 520 000 dan ortiq xo‘jalik yurituvchi subyektlarning 320 000 dan ortig‘ini tashkil qiladi⁵) ishtirokchilari huquqlarini amalga oshirish va himoya qilishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Bu

¹Jahon banking 2020-yil uchun Biznesni tartibga solish bo‘yicha hisoboti: <https://documents1.worldbank.org/curated/en/688761571934946384/pdf/Doing-Business-2020-Comparing-Business-Regulation-in-190-Economies.pdf>

² Press Release, Tieto, ‘Tieto the First Nordic Company to Appoint Artificial Intelligence to the Leadership Team of the New Data-driven Businesses Unit’ (Oct. 17, 2016).

³ Hansmann, Henry and Kraakman, Reinier H., The End of History for Corporate Law (January 2000). Қапанг: <https://ssrn.com/abstract=204528>

⁴ R. Kraakman, J. Armour, P. Davies, L. Enriques, H. Hansmann, G. Hertig, K. Hopt, H. Kanda and E. Rock, The Anatomy of Corporate Law 2nd edn., Oxford, Oxford University Press, 2009. Б-103.

⁵ Izoh: ma‘lumotlar tadqiqot davomida tadqiqotchi tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasidan so‘rab olingan: <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/usreo-2>.

borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida” 2017-yil 7-fevraldagi Farmonida korporativ boshqaruvning zamonaviy standart va usullarini joriy etish ustuvor vazifa sifatida ko‘rsatib o‘tilgan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-apreldagi F–5464-son Farmoyishi bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasining fuqarolik qonunchiligini takomillashtirish konsepsiyasining “Bozor iqtisodiyotini yanada rivojlantirish va xorijiy investitsiyalarni jalb etishning mustahkam huquqiy asoslarini shakllantirish” deb nomlangan qismida korporativ munosabatlarga alohida urg‘u berilib, ushbu munosabatlarni Fuqarolik kodeksining tartibga solish predmeti doirasiga kiritish muhimligi belgilangan. Milliy qonunchiligimizda MChJ ishtirokchilarining bir qator huquqlarini amalga oshirishda, masalan, ulushni boshqa shaxsga o‘tkazish, ishtirokchining MChJdan chiqishi, axborot olish va jamiyatni boshqarishga bo‘lgan huquqlarini amalga oshirishning tartib-taomillari aniq belgilanmaganligi ishtirokchilar huquqlarini amalga oshirish va himoya qilishga salbiy ta‘sir ko‘rsatib kelmoqda. Shuningdek, ishtirokchilarning huquqlari bilan bog‘liq *Doctrine of Ultra Vires*¹ (vakolat doirasidan tashqarida amalga oshiriladigan xatti-harakatlarning noqonuniyligi), “*Social Responsibility Theory*” (“ijtimoiy mas‘uliyat”) kabi nazariya va doktrinalarni O‘zbekiston sharoitida qo‘llash masalalari bugungi kunga qadar yaxlit tadqiqot sifatida o‘rganilmagan. Sud amaliyotida ham MChJ ishtirokchilari huquqlarini amalga oshirish va himoya qilish bilan bog‘liq qator muammoli masalalar, kamchiliklar mavjud.

Ayni vaqtda mamlakatimizda MChJ ishtirokchilari huquqlarini amalga oshirish va himoya qilish bilan bog‘liq qonunchilik hamda huquqni qo‘llash amaliyotini takomillashtirish va istiqbollarini belgilash zaruriyati vujudga kelmoqda. Ushbu tadqiqot mavjud muammolarni hal qilish hamda O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi, Iqtisodiy protsessual kodeksi, “Mas‘uliyati cheklangan va qo‘shimcha mas‘uliyatli jamiyatlar to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Korporativ munosabatlarning huquqiy asoslarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2022-yil 8-noyabrdagi PQ-415-sonli Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-apreldagi F–5464-son Farmoyishi bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasining fuqarolik qonunchiligini takomillashtirish konsepsiyasi va sohaga oid boshqa qonun hujjatlarining ijrosini muayyan darajada ta‘minlashga xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublikamizdagi fan va texnologiyalar rivojlanishining “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga mos holda bajarilgan.

¹ HARSH JAIN, *Doctrine of Ultra Vires under Company Law – What acts will be deemed as ultra vires?*, iPLEADERS (June 1, 2018,), <https://blog.ipleaders.in/borrowing-company-deemed-ultra-vires/>

Tadqiqot mavzusining o'rganilganlik darajasi. Mavzuni tadqiq etishda MChJ ishtirokchilarining huquqlarini amalga oshirish va himoya qilish bilan bog'liq huquqiy munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari, huquqni qo'llash amaliyoti hamda yuridik fanda mavjud bo'lgan konseptual yondashuvlar, ilmiy-nazariy qarashlar bayon etilgan adabiyotlardan foydalanildi.

MChJ ishtirokchilarining huquqlarini amalga oshirish va himoya qilish masalalarining ayrim jihatlari ingliz-amerika huquq tizimida faoliyat olib borayotgan nazariyachi olimlar Reinier Kraakman, Henry Hansmann, Bainbridge S.M., Robert Thompson, Andrew Keay, Peter B. Oh, Paul Le Cannu, Murray Pickering, Phillip Lipton, MDH davlatlarining huquqshunos olimlari D.Stepanov, A.Kuznesov, R.Ushniskiy, A.Mayfat, Ye.Afanaseva, Ye.Vyalix, A. Danelya, Ye.Pashkova, D.Severin, ustozlarimiz X.Raxmonqulov O.Oqyulov, S.Gulyamov, I.Rustambekov, B.Xodjayeov, V.Topildiyev, J.Yuldashev, O'.Xolmirzayevlar tomonidan o'rganilgan va ilmiy tadqiq qilingan¹. Biroq, mazkur dissertatsiya mavzusi doirasida O'zbekistonda kompleks tadqiq qilingan yaxlit ilmiy tadqiqot ishi mavjud emas.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya mavzusi Toshkent davlat yuridik universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "Xo'jalik jamiyatlari ishtirokchilarining huquq va majburiyatlarini suiiste'mol qilish muammolari" mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. Dissertatsiyaning maqsadi MChJ ishtirokchilarining huquqlarini amalga oshirish va himoya qilish bilan bog'liq ilmiy-nazariy va amaliy muammolarni aniqlash hamda qonunchilikni takomillashtirishga doir taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

- ishtirokchilar huquqlarining yuridik tabiati va o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish;

- ishtirokchilarning huquqlarini amalga oshirish shartlari va mexanizmini tahlil qilish orqali amaliyotdagi mavjud muammolarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish yuzasidan takliflar tayyorlash;

- ishtirokchilarning huquqlarini yurisdiksiyaviy va noyurisdiksiyaviy himoya qilish usullarini o'rganib chiqib, bu boradagi qonunchilikni takomillashtirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish;

- korporativ nizolarni hal etishda iqtisodiy sudlarning amaliyotini o'rganish orqali ishtirokchilarning korporativ huquqlarini samarali himoya qilish va sud amaliyotini unifikatsiya qilish bo'yicha takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning obykti MChJ ishtirokchilarining huquqlarini amalga oshirish va himoya qilish bilan bog'liq huquqiy munosabatlar tizimi hisoblanadi.

Tadqiqotning predmetini MChJ ishtirokchilarining huquqlarini amalga oshirish va himoya qilish masalalarini tartibga solishga doir normativ-huquqiy hujjatlar va ularni qo'llash amaliyoti, ayrim xorijiy davlatlar qonunchiligi va

¹ Asarlar ro'yxati foydalanilgan adabiyotlar qismida berilgan.

amaliyotidagi tajribalar, shuningdek o'rganilayotgan mavzuga oid ilmiy-nazariy qarashlar, konseptual yondashuvlar va g'oyalar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot olib borishda tizimli-tuzilmaviy, formal-yuridik, qiyosiy-huquqiy, mantiqiy (tahlil, sintez, deduksiya va induksiya), statistik kabi usullar qo'llanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

korporativ nizoda ishtirok etayotgan taraflar bir-biridan va guvohlardan sudda ko'rilayotgan ishga taalluqli bo'lishi mumkin bo'lgan barcha hujjatlarni so'rab olish huquqiga ega, bundan davlat sirini yoki qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa sirni tashkil etuvchi hujjatlar mustasnoligi asoslantirilgan;

mas'uliyati cheklangan jamiyatning yuridik shaxs hisoblangan ishtirokchilari vakillariga umumiy yig'ilishda ishtirok etish uchun beriladigan ishonchnomani notarial tartibda tasdiqlash tartibini bekor qilish, amalda faoliyat yuritib kelayotgan qo'shimcha mas'uliyatli jamiyat tashkiliy-huquqiy shaklidagi yuridik shaxslarning tashkiliy-huquqiy shaklini o'zgartirish va "Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar to'g'risida"gi qonun loyihasini ishlab chiqish zarurati asoslab berilgan;

sudlarning e'tibori xo'jalik shirkati zimmasiga uning boshqaruv organlari vakolatiga kiradigan majburiyat (masalan, ustav fondini (ustav kapitalini) ko'paytirish yoki kamaytirish, jamiyatning tashkiliy tuzilmasini tasdiqlash, ijroiya organini tuzish, uning rahbarini saylash (tayinlash rahbarning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish)ni yuklash haqidagi da'vo talabi, ushbu majburiyat qonun hujjatlari bilan shirkat boshqaruv organining vakolatiga kiritilganligi sababli, rad etilishi lozimligiga qaratish asoslab berilgan;

"ishtirokchilar o'rtasida, ishtirokchilar bilan xo'jalik shirkati o'rtasida, shu jumladan aksiyadorlar o'rtasida, aksiyador bilan aksiyadorlik jamiyati o'rtasida xo'jalik shirkati faoliyatidan kelib chiqadigan nizolarni" degan so'zlarni "korporativ nizolarni" degan so'zlar bilan almashtirish, ustav fondidagi ulushni oluvchi foydasiga ulushdan voz kechilganligini tasdiqlovchi hujjat, jamiyatning ustav fondidagi ulush ochiq kimoshdi savdosi orqali sotilganda, kimoshdi savdosi natijalari haqidagi bayonnoma talab qilib olinishi lozimligi, jamiyat ishtirokchilarining umumiy yig'ilish qarori bitim hisoblanmasligi sababli umumiy yig'ilish qarorini haqiqiy emas deb topish bilan bog'liq ishlarni ko'rishda FKning bitimlarga oid normalarini qo'llashga yo'l qo'yilmasligi asoslab berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

MChJ ishtirokchilari huquqlarining mazmun mohiyati o'rganilib, muayyan huquqlarini amalga oshirishdagi va himoya qilishdagi mavjud bo'shliqlarni to'ldirish maqsadida "Mas'uliyati cheklangan hamda qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatlar to'g'risida"gi Qonunga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish bo'yicha takliflar berildi;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-apreldagi F-5464-son Farmoyishi bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasining fuqarolik qonunchiligini takomillashtirish Konsepsiyasi ijrosini ta'minlash maqsadida korporativ munosabatlarni Fuqarolik kodeksining tartibga solish predmeti doirasiga kiritish bo'yicha takliflar berildi;

ishtirokchilarning o'z huquqlarini lozim darajada amalga oshirishlarini ta'minlash, bu borada jamiyatning ijro organlari va boshqa shaxslarning ham javobgarligini kuchaytirish zarurati ilmiy jihatdan asoslantirilib, O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga ayrim o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish bo'yicha takliflar berildi;

ishtirokchilarning huquqlarini sud orqali himoya qilishda yuzaga kelayotgan ovoragarchilik va sansalorliklarning oldini olish maqsadida ishlarning sudga taalluqliligi bo'yicha IPKga takliflar berildi;

qonun hujjatlarida korporativ huquqiy munosabatlar bilan bog'liq muayyan holatlarni aniqlashda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda vakolatli davlat organlarining tegishli elektron platformalariga o'zgartirishlar kiritish hamda ma'lumotlar bazasini integratsiya qilish yuzasidan takliflar tayyorlandi;

korporativ nizolarga oid ishlarni ko'rish bilan bog'liq sud amaliyotini unifikatsiya qilish maqsadida "O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi va O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi Plenumi qarorlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining qarori loyihasi tayyorlandi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot ishida qo'llanilgan usullar, uning doirasida foydalanilgan nazariy ma'lumotlar rasmiy manbalardan olinganligi, huquqshunoslar (sudyalar) o'rtasida so'rovnomalar o'tkazilganligi, xorijiy tajriba va milliy qonun hujjatlarining o'zaro tahlil qilinganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotda joriy etilganligi, ilmiy tadqiqot natijalarining xorijiy va milliy nashrlarda e'lon qilinganligi, bildirilgan taklif va xulosalarning tegishli davlat organlari tomonidan inobatga olinganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati undagi ilmiy-nazariy xulosalar, taklif va tavsiyalardan ilmiy tadqiqot faoliyatida, qonun ijodkorligida, huquqni qo'llash amaliyotida foydalanishda, tegishli qonunchilik normalarini sharhlashda ko'rinadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati qonun ijodkorligi faoliyatida, xususan, normativ-huquqiy hujjatlarni tayyorlash, ularga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritishda, huquqni qo'llash amaliyotini takomillashtirishda hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi va Rayosati qarorlarini qabul qilishda foydalanilishi mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Mas'uliyati cheklangan jamiyat ishtirokchilari huquqlarini amalga oshirish va himoya qilish borasida olingan ilmiy natijalar asosida:

korporativ nizoda ishtirok etayotgan taraflar bir-biridan va guvohlardan sudda ko'rilayotgan ishga taalluqli bo'lishi mumkin bo'lgan barcha hujjatlarni so'rab olish huquqiga ega, bundan davlat sirini yoki qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa sirni tashkil etuvchi hujjatlar mustasnoligi to'g'risidagi taklif "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida" 2020-yil 5-oktabrdagi O'RQ-640-sonli Qonuni bilan O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy protsessual kodeksi 42-moddasining uchinchi qismida o'z

ifodasini topgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Korrupsiyaga qarshi kurashish va sud-huquq masalalari qo‘mitasining 2022-yil 9-dekabrda 04/2-09-5642-son dalolatnomasi). Ushbu taklif MChJ ishtirokchisining axborotga bo‘lgan huquqini amalga oshirishda, qonun bilan qo‘riqlanadigan muayyan sirlar, jumladan, tijorat siriga oid ma‘lumotlar bilan tanishishning alohida tartibi mavjudligini belgilab berishga xizmat qilgan;

mas‘uliyati cheklangan jamiyatning yuridik shaxs hisoblangan ishtirokchilari vakillariga umumiy yig‘ilishda ishtirok etish uchun beriladigan ishonchnomani notarial tartibda tasdiqlash tartibini bekor qilish, amalda faoliyat yuritib kelayotgan qo‘shimcha mas‘uliyatli jamiyat tashkiliy-huquqiy shaklidagi yuridik shaxslarning tashkiliy-huquqiy shaklini o‘zgartirish va “Mas‘uliyati cheklangan jamiyatlar to‘g‘risida”gi qonun loyihasini ishlab chiqish zarurati to‘g‘risidagi takliflar O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Korporativ munosabatlarning huquqiy asoslarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2022-yil 8-noyabrda PQ-415-sonli Qarori birinchi qismining (v) bandida, ikkinchi qismining ikkinchi xatboshisida va to‘qqizinchi qismining ikkinchi xatboshisida o‘z ifodasini topgan (O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining 2022-yil 29-noyabrda 9/3-161/8-sonli dalolatnomasi). Ushbu takliflar yuridik shaxs bo‘lgan ishtirokchi tomonidan berilgan ishonchnomaning O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 138-moddasiga muvofiqlashtirilishiga, “Mas‘uliyati cheklangan hamda qo‘shimcha mas‘uliyatli jamiyatlar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni 34-moddasining ikkinchi qismini qonunchilik hujjatlariga unifikatsiya qilinishiga va shu bilan amaliyotdagi nizolarni oldini olishga, yuridik shaxslarning amaldagi tashkiliy-huquqiy shakllarini qayta ko‘rib chiqib, tabiatan bir xildagi tashkiliy-huquqiy shakllarning qisqartirilishiga va korporativ huquq rivojlangan ilg‘or xorijiy tajriba asosida zamon talablariga mos qonun loyihasini ishlab chiqishga xizmat qilgan;

Sudlarning e‘tibori xo‘jalik shirkati zimmasiga uning boshqaruv organlari vakolatiga kiradigan majburiyat (masalan, ustav fondini (ustav kapitalini) ko‘paytirish yoki kamaytirish, jamiyatning tashkiliy tuzilmasini tasdiqlash, ijroiya organini tuzish, uning rahbarini saylash (tayinlash rahbarning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish)ni yuklash haqidagi da‘vo talabi, ushbu majburiyat qonun hujjatlari bilan shirkat boshqaruv organining vakolatiga kiritilganligi sababli rad etilishi lozimligiga qaratish to‘g‘risidagi taklif O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi “O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi va O‘zbekiston Respublikasi Oliy xo‘jalik sudi Plenumining ayrim qarorlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida” 2020-yil 19-dekabrda 37-sonli qarori bilan O‘zbekiston Respublikasi Oliy xo‘jalik sudi Plenumi “Iqtisodiy sudlar tomonidan korporativ nizolarni hal etishning ayrim masalalari to‘g‘risida” 2014-yil 20-iyundagi 262-sonli Plenum qarorini 9-bandida o‘z ifodasini topgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining 2022-yil 12-dekabrda ISX 1598-sonli dalolatnomasi). Ushbu taklif MChJning tashkiliy tuzilmasini tasdiqlash kabi jamiyat boshqaruv organlari vakolatiga kiradigan masalalar bo‘yicha sudga murojaat qilinganda, amaliyotdagi turli yondashuvlarni birxillashtirishga xizmat qilgan;

“ishtirokchilar o‘rtasida, ishtirokchilar bilan xo‘jalik shirkati o‘rtasida, shu

jumladan aksiyadorlar o'rtasida, aksiyador bilan aksiyadorlik jamiyati o'rtasida xo'jalik shirkati faoliyatidan kelib chiqadigan nizolarni" degan so'zlarni "korporativ nizolarni" degan so'zlar bilan almashtirish, ustav fondidagi ulushni oluvchi foydasiga ulushdan voz kechilganligini tasdiqlovchi hujjat, jamiyatning ustav fondidagi ulush ochiq kimoshdi savdosi orqali sotilganda kimoshdi savdosi natijalari haqidagi bayonnoma talab qilib olinishi lozimligi, jamiyat ishtirokchilarining umumiy yig'ilish qarori bitim hisoblanmasligi sababli umumiy yig'ilish qarorini haqiqiy emas deb topish bilan bog'liq ishlarni ko'rishda FKning bitimlarga oid normalarini qo'llashga yo'l qo'yilmasligi to'g'risidagi takliflar O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi "O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi va O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi Plenumining ayrim qarorlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish hamda ba'zi qarorlarini o'z kuchini yo'qotgan deb topish haqida" 2023-yil 20-fevraldagi 6-sonli qarori bilan O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi Plenumi "Iqtisodiy sudlar tomonidan korporativ nizolarni hal etishning ayrim masalalari to'g'risida" 2014-yil 20-iyundagi 262-sonli Plenum qarori muqaddimasida, 4-bandining beshinchi va oltinchi xatboshilarida hamda 14.2-bandida o'z ifodasini topgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining 2023-yil 14-martdagi 11-05-23-sonli dalolatnomasi). Ushbu takliflar O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi Plenumi "Iqtisodiy sudlar tomonidan korporativ nizolarni hal etishning ayrim masalalari to'g'risida" 2014-yil 20-iyundagi 262-sonli qarori nafaqat ichki, balki tashqi korporativ munosabatlarni tartibga soluvchi qonunchilik hujjatlarini qo'llash bo'yicha sud amaliyotini belgilab, Plenum qarorini O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy protsessual kodeksi normalariga muvofiqlashtirishga, "Mas'uliyati cheklangan hamda qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni 20-moddasining o'n ikkinchi va yigirmanchi qismlarda nazarda tutilgan normalarni aniq va bir xilda qo'llashga hamda sud amaliyotidagi ishtirokchilarning huquqlarini amalga oshirish va himoya qilishdagi turli yondashuvlarni birxillashtirishga, shuningdek, umumiy yig'ilish qarorlariga nisbatan mavjud turli qarama-qarshi nazariyalar (bitim nazariyasi, me'yoriy hujjat nazariyasi, yuridik fakt nazariyasi «sui generis») va sud amaliyotidagi ayrim yondashuvlarni inkor qilib, bu boradagi sud amaliyotini birxillashtirishga va shu orqali ishtirokchilarning huquqlarini samarali himoya qilishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 7 ta ilmiy anjumanlarda, jumladan, 2 ta xalqaro xorijiy va 5 ta (xalqaro) respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi va undagi xulosa, taklif va tavsiyalar bo'yicha jami 21 ta, OAKning dissertatsiya asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan nashrlarda 17 ta (1 ta xorijiy) maqolalar chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiya hajmi 142 betni (foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan tashqari) tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish (doktorlik dissertatsiyasi annotatsiyasi) qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslantirilgan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlari bilan bog'liqligi, tadqiq etilayotgan muammoning o'rganilganlik darajasi, dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obykti va predmeti, usullari, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijasi, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati, ularning joriy qilinishi, tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi, natijalarning e'lon qilinganligi, dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi yoritib berilgan.

Dissertatsiyaning **“Mas’uliyati cheklangan jamiyat ishtirokchilari huquqlarining umumiy tavsifi”** deb nomlangan birinchi bobida mas’uliyati cheklangan jamiyat ishtirokchilarning huquqiy maqomi, ishtirokchilar huquqlari mazmuni, xususiyatlari hamda ularga sun’iy intellekt va yuqori texnologiyalarning ta’siri yoritilib, ularning huquqlari tasniflangan. Zamonaviy korporativ huquqdagi bir nechta ilmiy nazariyalar, jumladan, ishtirokchi nazariyasi (*shareholder theory*), agentlik nazariyasi (*agency theory*), manfaatdor shaxs nazariyasi (*stakeholder theory*), ijtimoiy mas’uliyat nazariyasi (*social responsibility theory*) va boshqa modellar, jumladan, (ishtirokchi (aksiyador)ga yo'naltirilgan modeli (*shareholder oriented*), ishchi kuchiga yo'naltirilgan (*labour oriented*) va davlat ishtirokiga yo'naltirilgan (*state oriented*) qiyosiy tahlil qilinib, korporativ huquqiy munosabatlarda ishtirokchining manfaatlari ustunligi e'tirof etilgan. Shu nuqtai nazardan korporativ huquqiy munosabatlarning diqqat markazida turgan jamiyat ishtirokchisining huquqiy maqomi o'rganib chiqilib, aksiyadordan farqli ravishda, uning turli xil asoslarda vujudga kelishiga urg'u berilgan. Qonunchilikda ishtirokchining huquqiy maqomi turli holatlarga bog'liq qilib qo'yilganligi tanqidiy tahlil qilinib, ushbu maqomni “ishtirokchi-ulush”, “ulush-ishtirokchi” tamoyiliga mos ravishda ulushning davlat ro'yxatidan o'tkazilishi tartibini belgilash lozimligi to'g'risida xulosa qilingan.

Milliy qonunchiligimizga Yevropaning kontinental huquq tizimidagi davlatlarida jamiyatni tashkil etish uchun qonunchilikda belgilangan ustav kapitalini shakllantirish va unga qo'yilgan minimal talablar **“the principle of strong authorized capital”** (mustahkam ustav kapitali tamoyili) tamoyili shartlari o'rniga anglo-amerika huquq tizimidagi **“Solvency test”** (to'lovga qobiliyatlik testi) tamoyili shartlari kiritilganligi, bunday holatda jamiyatning ustav kapitaliga nisbatan bo'lgan nazoratning yetarli emasligi ilmiy nuqtai-nazardan asoslab berilgan va mazkur nazoratni kuchaytirish yuzasidan takliflar berilgan. Shuningdek, **“Solvency test”** (to'lovga qobiliyatlik testi) tamoyili shartlarini amaliyotga joriy etishda, xususan, jamiyat ishtirokchilari o'rtasida foydani taqsimlashda qonunbuzarlik holatlari kelib chiqayotganligi, ushbu qonunbuzarlik holatlarining oldini olish uchun jamiyat va uni ishtirokchilarining kreditorlar oldidagi javobgarligini kuchaytirish zarurligi to'g'risida fikr-mulohazalar bildirilgan.

Jamiyatda ishtirokchi maqomiga ega bo'lish huquqining cheklanishi yoki taqiqlanishi bilan bog'liq O'zbekiston hamda xorijiy davlatlar qonunchiligi qiyosiy o'rganib chiqilib, qonunda o'rnatilgan bunday cheklovlarning qanday samara berayotganligini aniqlash, cheklov o'rnatilgan shaxslarning jamiyatda ishtirokchi bo'lib qolishining oldini olish bo'yicha milliy qonunchiligimizga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida takliflar berilgan. Bu boradagi huquqiy choralar ma'muriy organlar faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va shaxsga oid ma'lumotlarni integratsiyalash orqali amalga oshirilishi mumkinligi asoslantirilgan.

Dissertant tomonidan yagona ishtirokchi sifatida bitta shaxsdan iborat ishtirokchi hamda ikki va undan ortiq shaxsdan iborat ishtirokchilarning jamiyatni tashkil etish, qayta tashkil etish va tugatish, jamiyatni boshqarish bilan bog'liq huquqlaridagi farqli jihatlar sanab o'tilib, qonunda to'g'ridan-to'g'ri nazarda tutilmagan bo'lsada, jamiyatning yagona ishtirokchisi istalgan vaqtda undan chiqib ketish imkoniyatiga ega emasligi amaliy misollar bilan asoslab berilgan. Shuningdek, yagona ishtirokchi jamiyatdagi ulushini faqatgina sotish yoxud boshqacha tarzda begonalashtirish (voz kechishi, hadya qilishi) orqali jamiyatdan ketishi mumkinligi ta'kidlangan. Bundan tashqari yagona ishtirokchisi bo'lgan jamiyatda korporativ huquq (munosabatlar) to'g'risida so'z yuritilishiga zarurat yo'qligi to'g'risidagi fikr-mulohazalar inkor qilingan holda bunday jamiyatda ham munosabatlar korporativ huquqiy munosabatlar doirasida (*separate legal entity*) ko'rib chiqilishi asoslab berilgan.

Muallif ishtirokchilarning subyektiv huquqlari to'g'risida D.Lomakin, V.Belov, N.Paxomova, V.Speranskiy, V.Rayxer va boshqa olimlarning ilmiy yondashuvlarini o'rganib chiqib, ishtirokchilarning jamiyatdagi huquqlari ashyoviy va/yoki majburiyat huquqi (masalan: ishtirokchi jamiyatdan axborot talab qilsa, jamiyat oldida majburiyat vujudga keladi) yoxud sekundar huquq (masalan: ishtirokchining jamiyatdan chiqib ketish haqidagi arizasini MChJga topshirishi bilan muayyan istisnolarni inobatga olgan holda korporativ munosabat tugaydi)ning ayrim jihatlarini yoritib, ushbu huquqlar kompleks shaklda korporativ huquqning tarkibiy qismi ekanligini ta'kidlaydi va ishtirokchilarning huquqlarini amalga oshirish jarayonlarini korporativ munosabatlarning elementi sifatida tan oladi. "Korporativ huquq - bu korporativ munosabat subyektlarining huquqlari va majburiyatlarini belgilovchi, korporatsiyaning faoliyati bilan bog'liq tashqi va ichki ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi huquq normalari yig'indisi" deb ta'rif beradi.

Dissertatsiya ishida ishtirokchi huquqlarining vujudga kelishi, boshqa shaxslarga o'tishi va tugashi jarayonlari murakkabligiga alohida e'tibor qaratilib, har bir holat misollar orqali yoritib berilgan. Qonunchilikda shaxsning ishtirokchi maqomiga ega bo'lmasa-da, jamiyat ishtirokchisining huquqlarini amalga oshirishi va uning majburiyatlarini bajarishi jarayonini tartibga soluvchi normalarning mavjudligi amaliyotda ba'zi nizolarning kelib chiqishiga sabab bo'layotganligi ta'kidlangani holda bu borada Qonunga o'zgartirishlar kiritish taklif qilingan.

Ishtirokchilar huquqlarini tasniflashda, dissertant tomonidan kontinental huquq tizimi bo'yicha olim A.Kan (*Andreas Cahn*), anglo-amerika huquq tizimi

bo'yicha olim J.Velasko (*Julian Velasco*) hamda MDH davlatlari olimlarining ilmiy ishlari o'rganib chiqilib, ular qiyosiy tahlil qilingan holda ishtirokchilarning huquqlari mazmuniga ko'ra uch guruhga (mulkiy, nomulkiy va tashkiliy boshqaruv), manbasiga ko'ra qonuniy (qonunda belgilangan) va shartnomaviy (ustavda kelishilgan), huquqiy tartibga solish usuliga ko'ra imperativ yoki dispozitiv, amalga oshirish xususiyatiga ko'ra shartli va shartsiz, oqibatiga ko'ra birlamchi va hosila, xohish-irodasining ifodalanishiga ko'ra shaxsan va jamoaviy (bir ovozdan, umumiy ovozlari sonining kamida uchdan ikki qismidan iborat ko'pchilik ovozi bilan, ko'pchilik ovozi bilan), ulushning hajmiga nisbatan nisbiy va absolyut (mutlaq) huquqlar, amalga oshirish usuliga ko'ra aktiv hamda passiv huquqlarga bo'lingan va har bir guruh bo'yicha ishtirokchilarning huquqlarini amalga oshirishning xususiyatlari ilmiy fikrlar hamda amaliy misollar bilan yoritib berilgan. Shuningdek, rivojlangan zamonaviy texnologiyalar, sun'iy intellekt va (*Big DATA*) katta ma'lumotlarning mavjudligi korporatsiyalar boshqaruvini amalga oshirish va ularda qarorlar qabul qilishga, jumladan, eng keng tarqalgan korporatsiya turi bo'lgan MChJ ishtirokchilari huquqlarini amalga oshirishga ham ta'sir o'tkazayotganligi asoslantirilgan, sun'iy intellekt va axborot texnologiyalari rivojlangan davrda ishtirokchilarning huquqlari qay tarzda amalga oshirilishi kerakligi borasida shaxsiy mulohazalar bayon etilgan.

Dissertatsiyaning **“Mas’uliyati cheklangan jamiyat ishtirokchilari huquqlarini amalga oshirishning ayrim masalalari”** deb nomlangan ikkinchi bobida ishtirokchilarning huquqlarini amalga oshirish tushunchasi, huquqni amalga oshirishdagi tamoyillar, shuningdek, huquqlarni amalga oshirishdagi ayrim muammolar yoritilgan. Ishtirokchilarning huquqlarini amalga oshirishda korporativ shartnomaning o'rni va ahamiyati haqida fikr mulohazalar bildirilgan.

Tadqiqotchi ishtirokchining u yoki bu huquqini amalga oshirishi ishtirokchi xohish-irodasining mahsuli bo'lib, bunday huquqni amalga oshirish yoki oshirmaslik, shuningdek qachon amalga oshirilishini o'zi erkin hal qilishini bayon etar ekan, ishtirokchilarning hamma huquqlari ham vujudga kelish xarakteriga ko'ra uning ixtiyoriga bog'liq bo'lmasligini, biroq ishtirokchining “amalga oshirish” tamoyili orqali o'z huquqidan foydalanishi, bunday foydalanish har doim ishtirokchining ixtiyorida bo'lib, uning manfaatlarini ifodalashi zarurligini ta'kidlagan holda, huquqni amalga oshirishda “manfaat” zaruriy shart sifatida namoyon bo'lishiga e'tibor qaratgan.

Dissertatsiyada ishtirokchilarning huquqlarini samarali amalga oshirish uchun ularning kafolatlanganligi, majburiyatlarning bajarilishi (xususan, fidutsiar majburiyatlarga sodiq bo'lish), korporativ huquqiy munosabatlarda ishtirokchilarning teng huquqliligi, huquqlarni suiiste'mol qilishga yo'l qo'yilmaslik kabi muhim holatlar va shartlar ajratib ko'rsatilgan. Shuningdek, FKning 9-moddasidagi huquqlarni amalga oshirish bilan bog'liq halollik, oqilonalik, adolat, ish odobi qoidalariga rioya etish shartlar (tamoyillar)idan tashqari, ishtirokchilar o'z huquqlarini amalga oshirishda korporativ jipslikni ta'minlash va yagona maqsad sari intilish nuqtai nazaridan ichki munosabatlarda jamoaviy ishlash (hamkorlik), muammolarni birgalikda hal qilish, faollik, tejamkorlik, vijdoniylik, insoflilik, sodiqlik, o'zaro hurmat va jamiyatning ta'sis

hujjatlarida belgilangan qoidalariga rioya qilish kabi muhim shartlar (tamoyillar)ga ham rioya qilishlari zarurligi ta'kidlangan.

Izlanuvchi ishtirokchining huquqlarini amalga oshirish qonun bilan kafolatlangan mukammal mexanizm orqali ta'minlanmasa, bunday huquqdan foydalanish samarasiz bo'lishiga alohida urg'u berib, ishtirokchilarning ayrim huquqlarini amalga oshirishdagi muammoli masalalarga ham to'xtalib o'tgan va bu borada o'zining fikr-mulohazalarini bildirgan. Jumladan, jamiyat ishtirokchilarining umumiy yig'ilishini o'tkazish muallif tomonidan shartli ravishda to'rta, ya'ni umumiy yig'ilishiga tayyorgarlik ko'rish, umumiy yig'ilishni chaqirish, umumiy yig'ilishni o'tkazish va qabul qilingan qarorni rasmiylashtirish bosqichlariga bo'lingan va har bir bosqichda ishtirokchining huquqlarini amalga oshirishdagi mavjud muammolar sanab o'tilgan hamda ularni hal etishning qonuniy yechimi ko'rsatilgan. Ishtirokchilar umumiy yig'ilish qarorining tabiati va o'ziga xos xususiyatlari ham ilmiy tadqiq qilinib, u alohida yuridik fakt sifatida tan olinishi kerakligi asoslantirilgan.

Ishtirokchining ulushni uchinchi shaxslardan imtiyozli tarzda sotib olish huquqini amalga oshirish tartib-taomillari tahlil qilinar ekan, ushbu mexanizmning qayta ko'rib chiqilishi va soddalashtirilishi, bunda anglo-amerika va kontinental huquq tizimlaridagi korporativ huquqda tan olingan imtiyozli huquqdan voz kechish (*right of first refusal*) tartibini joriy etish maqsadga muvofiqligi taklif sifatida ilgari surilgan.

Milliy qonunchiligimizdagi ishtirokchining jamiyatdan chiqish huquqi korporativ huquq tizimi rivojlangan xorijiy davlatlar (Germaniya, Italiya) bilan qiyosiy tahlil asosida o'rganib chiqilib, farqli jihatlari ko'rsatib berilgan. Dissertatsiya ishida aksariyat G'arbiy Yevropa davlatlari qonunchiligida ishtirokchining o'z xohishiga asosan xohlagan vaqtda jamiyatdan chiqishi nazarda tutilmaganligiga e'tibor qaratilgan. Ushbu huquqni amalga oshirish mexanizmini takomillashtirish maqsadida ma'muriy organlar va notarial idoralar xizmatlaridan foydalanish tartibini belgilash orqali bu borada yuzaga keladigan nizoli holatlarning oldini olish mumkinligi borasida ilmiy mulohazalar yuritilgan.

Ko'plab davlatlar qonunchiligida ishtirokchining fundamental huquqi sifatida ajratib ko'rsatilgan jamiyatdan axborot olishga bo'lgan huquqi ishtirokchining boshqa bir qator huquqlarini amalga oshirishga zamin hisoblanishi to'g'risidagi qarashlar qo'llab-quvvatlangan. Milliy qonunchiligimizda ishtirokchining axborotga bo'lgan huquqiga to'g'ridan-to'g'ri hech qanday cheklovning mavjud emasligi ayrim hollarda huquqni suiiste'mol qilish holatlarini ham keltirib chiqarishiga sabab bo'layotganligi bois bu boradagi Germaniya, Xitoy va Rossiya kabi bir qator davlatlar qonunchiligi o'rganib chiqilib, muayyan hollarda cheklovlar o'rnatish zarurati borligi ta'kidlangan. Shuningdek, ishtirokchining axborotga bo'lgan huquqini jamiyat faoliyati bilan bog'liq hujjatlardan "nusxalar va ko'chirmalar olish" tartibini joriy etish orqali kengaytirish lozimligi asoslantirib berilgan.

Ishtirokchilarning har qanday huquqlarini amalga oshirishni ta'minlashda zamonaviy texnologiyalardan keng foydalanish kerakligi, bunday choralar amaliyotda yuzaga kelayotgan ayrim muammolarni barataraf etishga xizmat qilishi

to'g'risida xulosa qilingan. Shuningdek, SI va zamonaviy texnologiyalarning ayrim hollarda muayyan murakkabliklar, qiyinchiliklar keltirib chiqarishi mumkinligi tegishli misollar asosida yoritib berilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining fuqarolik qonunchiligini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2019 yil 5 apreldagi F-5464-son farmoyishi bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasining fuqarolik qonunchiligini takomillashtirish konsepsiyasining 4-bandida berilgan ko'rsatmadan kelib chiqib, O'zbekistonda korporativ shartnomalarning ikkita modeli (anglo-amerika hamda kontinental huquq)dan qaysi biri tanlanishi lozimligi, ushbu normalar qonunchiligimizda qanday tarzda va shaklda implementatsiya qilinishi lozimligi to'g'risida fikr-mulohazalar bildirilgan.

Dissertatsiyaning "**Mas'uliyati cheklangan jamiyat ishtirokchilarining huquqlarini himoya qilish shakli va usullari**" deb nomlangan uchinchi bobida ishtirokchilarning huquqlarini himoya qilish shakli va usullari tushunchasi yoritilib, ishtirokchilarning huquqlarini himoya qilishda muhim o'rinni egallagan iqtisodiy sudlar orqali ularning huquqlarini himoya qilishning ayrim masalalari sud amaliyotidan kelib chiqib tahlil qilingan.

"Huquqni himoya qilish" tushunchasi barcha huquq tizimlarida muhim institut sifatida o'rganilib, **World Justice Project** xalqaro nodavlat tashkiloti tomonidan yuritiladigan Huquq ustuvorligi indeksida (*Rule of Law Index*) ham "Huquqni muhofaza qilish" alohida indikator sifatida baholanishi orqali huquqni himoya qilish institutining ahamiyati yoritib berilgan.

Muallif jamiyat ishtirokchisining huquqlarini himoya qilish tushunchasi yuzasidan olimlar va amaliyotchi huquqshunoslar tomonidan bildirilgan fikr mulohazalarni o'rganib chiqib, "jamiyat ishtirokchisining huquqlarini himoya qilish – ishtirokchining (shu jumladan, ulush egasining) huquqni amalga oshirish jarayonidagi to'siqlarni bartaraf etish, buzilgan korporativ huquqlarini tiklash, huquqi buzilishi natijasida yetkazilgan zararni qoplash, huquqbuzarlikning turidan (ma'muriy, jinoiy, fuqaroviy) kelib chiqib, aybdorlarga nisbatan javobgarlik choralari belgilash hamda korporativ huquqlarini buzilishining oldini olishga qaratilgan yuridik xatti-harakatlar majmuidir" deb ta'rif bergan.

Jamiyat ishtirokchisining huquqlarini yurisdiksiyaviy va noyurisdiksiyaviy himoya qilish shakllariga (*jurisdictional and non-jurisdictional forms of rights protection*) to'xtalib o'tarkan, izlanuvchi har bir shaklning o'ziga xos xususiyatlari va samaradorlik darajasini tahlil qilgan.

Ishtirokchining huquqlarini o'zi himoya qilishi borasida olimlarning turli fikrlarini o'rganib chiqib, zamonaviy korporativ huquqda *Self-Defense in Corporate Legal Relations* institutining qonuniy asoslari kengligini, ishtirokchi huquqlari buzilishining oldini olish (*preventive character*) bo'yicha tegishli choralarni ko'rishi ham ushbu institut doirasida qamrab olinishini ta'kidlab, huquqlarni himoya qilishning ushbu usuli eng maqbul va kam xarajat ekanligidan kelib chiqib, uning qonuniy asoslarini kengaytirish lozimligi to'g'risida xulosa qilgan.

Korporativ huquqlarni himoya qilishda, ayrim hollarda ma'muriy organlarning faoliyatini takomillashtirish orqali ishtirokchilarning huquqlarini

samarali himoya qilishga erishish mumkinligiga e'tibor qaratilib, bu boradagi xorijiy davlatlar (Germaniya, Rossiya) tajribasi o'rganilgan holda davlat xizmatlari markazi va notariuslarning bu boradagi vakolatlarini kengaytirish lozimligini ta'kidlaydi.

Korporativ munosabat ishtirokchilarining huquqlarini himoya qilishning asosiy va eng keng tarqalgan shakli huquqlarni sud tartibida himoya qilish ekanligini ta'kidlar ekan, muallif bu boradagi zudlik bilan hal etilishi lozim bo'lgan muammo sifatida korporativ huquqiy munosabatlar bilan bog'liq ommaviy-huquqiy nizolarning taalluqlilik masalasini ajratib ko'rsatgan va korporativ nizolar hamda uning oqibatlari bilan bog'liq ommaviy-huquqiy nizolar iqtisodiy sudlarda hal etilishi lozimligi to'g'risida xulosaga kelgan.

Tadqiqot natijalari bo'yicha ishtirokchilarning huquqlarini himoya qilish usullari tushunchasiga – qonunchilikda nazarda tutilgan va belgilangan tartibda ishtirokchilarning (shu jumladan, ayrim hollarda ulush egasining) buzilgan yoki nizolashilayotgan huquqlarini tiklashga qaratilgan moddiy-huquqiy choralari, deb ta'rif berar ekan, muallif huquqni himoya qilishning umumiy usullaridan tashqari huquqni himoya qilishning maxsus usullari qonunchilikda imkon qadar har bir holatda belgilab berilishi orqali samarali himoyaga erishish mumkinligini ta'kidlaydi.

Muallif har bir huquqning o'ziga xos maxsus himoya qilish usuli bo'lishi lozimligi konsepsiyasi tarafdorlarini qo'llab-quvvatlab, huquqni himoya qilish institutiga huquqqa oid umumiy "aniqlik tamoyili" asosida yondashilgan holda maxsus himoya usullari bilan ta'minlangan huquq buzilgan taqdirda, maxsus himoya usullari orqali tiklanishi lozim, degan xulosaga kelgan.

Dissertant ishtirokchilarning huquqlarini iqtisodiy sudlar orqali himoya qilishdagi ayrim muammoli masalalarni O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining korporativ nizolarga oid statistik ma'lumotlarini tahlil qilish hamda respublika iqtisodiy sudlari sudyalarining telegram kanali orqali sudyalar o'rtasida so'rov o'tkazish orqali o'rganib chiqib, amaliyotda ularni bartaraf etishning qonuniy yechimi bo'yicha takliflar bergan. Jumladan, umumiy yig'ilish qarori va bitim har xil tushunchalar ekanligini ta'kidlab, umumiy yig'ilish qarorlarini haqiqiy emas deb topish bilan bog'liq ishlarga bitimlarga oid normalarni qo'llashga yo'l qo'yilmasligini, jamiyat ishtirokchilarining umumiy yig'ilish qarorining o'z-o'zidan haqiqiy bo'lmagan va nizoli qarorlar sifatida o'rganib chiqilishi lozimligini hamda bunday yondashuvning ishtirokchining buzilgan huquqini sud orqali tiklashdagi roli va ahamiyatini ilmiy jihatdan asoslab bergan.

Ishtirokchini jamiyatdan sudning qaroriga asosan majburiy tartibda chiqarish masalasidagi olimlarning turli fikrlariga nisbatan o'z shaxsiy nuqtai nazarini bildirib, jamiyatdan majburiy tartibda chiqarish ishtirokchiga nisbatan sanksiya emas, balki huquqni himoya qilishning bir usuli, degan xulosaga kelgan. Huquqni himoya qilishning ushbu usulini qonuniy asoslariga aniqlik kiritish zarurati borligini ta'kidlab, xorijiy davlatlar tajribasini o'rgangan holda, o'z fikr-mulohazalarini bildirgan.

Muallif ishtirokchilarning jamiyat tomonidan tuzilgan bitimlarni haqiqiy emas deb topish va (yoki) ularning haqiqiy emasligi oqibatlarini qo'llash

masalalarida korporativ huquqda tan olingan *“The Doctrine of Ultra Vires”* (Ultra Vires doktrinasini) doktrinasini milliy qonunchiligimizda ham o‘z aksini topganligiga urg‘u bergan. Shuningdek, dissertant bitim tuzishdagi kontragentga oid ma‘lumotlarni o‘rganishda ehtiyotkorlik chegarasini aniqlashtirishga zarurat borligi to‘g‘risida so‘z yuritib, bu borada o‘zining ilmiy takliflarini bergan.

XULOSA

“Mas‘uliyati cheklangan jamiyat ishtirokchilari huquqlarini amalga oshirish va himoya qilish masalalari” mavzusidagi tadqiqotda quyidagi ilmiy-nazariy, qonun ijodkorligi va huquqni qo‘llash amaliyotini takomillashtirishga oid xulosalarga kelindi:

I. Ilmiy-nazariy xulosalar:

1.1. Jamiyatning barcha ishtirokchilari fuqarolik huquqiy munosabatining subyekti sifatida tenglik tamoyiliga (*Equal Treatment of Shareholders*) muvofiq huquqlari kafolatlangan bo‘lsa-da, ushbu shaxslarning korporativ maqomi ustav fondidagi ulushi miqdoriga bog‘liq bo‘lib (ovoz berish, foydani taqsimlash), korporativ huquqlarni amalga oshirishda, ushbu huquq sohasining o‘ziga xos xususiyatlari ustunlikka ega bo‘lishi e‘tiborga olinishi lozim.

1.2. Zamonaviy korporativ huquqda tan olingan *“The Doctrine of Ultra Vires”* *“cheklovdan (vakolatdan) tashqari”* doktrinasini milliy qonunchiligimizda o‘z aksini topganligi ilmiy asoslab berilgan. Ushbu doktrinadan kelib chiqib, MChJ ishtirokchisi huquqlarini himoya qilishga qaratilgan qonun normalarini qo‘llash yuzasidan takliflar ishlab chiqilgan.

1.3. Ishtirokchilarning huquqlari mazmuniga ko‘ra uch guruhga (mulkiy, nomulkiy va tashkiliy boshqaruv), manbasiga ko‘ra qonuniy (qonunda o‘rnatilgan) va shartnomaviy (ustavda kelishilgan), huquqiy tartibga solish usuliga ko‘ra imperativ yoki dispozitiv, amalga oshirish xususiyatiga ko‘ra shartli va shartsiz, oqibatiga ko‘ra bo‘lib, birlamchi va hosila; xohish-irodasining ifodalanishiga ko‘ra shaxsan va jamoaviy (bir ovozdan, umumiy ovozlari sonining kamida uchdan ikki qismidan iborat ko‘pchilik ovozi bilan, ko‘pchilik ovozi bilan), ulushning hajmiga nisbatan nisbiy huquqlar va absolyut (mutlaq), amalga oshirish usuliga ko‘ra aktiv huquqlar va passiv huquqlarga bo‘lib o‘rganish ishtirokchilarning huquqlarini atroflicha tavsiflab berish imkoniyatini yaratadi.

1.4. Ishtirokchilarning huquqlarini amalga oshirish shartlari quyidagi to‘rtta tamoyilga bog‘liq bo‘lgan holda rivojlanishi to‘g‘risida xulosa qilindi:

- Ishtirokchilarning huquqlarini amalga oshirish kafolatlanganligi;
- Majburiyatlarning bajarilishi (xususan, fidutsiar majburiyatlarga sodiq bo‘lish);
- Korporativ huquqiy munosabatlarda ishtirokchilarning teng huquqligi;
- Huquqlarni suiiste‘mol qilishga yo‘l qo‘yilmasligi.

1.5. Anglo-amerika va kontinental huquq tizimlaridagi korporativ huquqda o‘z ifodasini topgan ishtirokchining ulushni sotib olishda uchinchi shaxslar oldidagi imtiyozli huquqini amalga oshirishda *“right of first refusal”* huquqdan

voz kechish mexanizmini joriy etish orqali huquqni amalga oshirish samaradorligiga erishish asoslantirilgan.

